

UDK: 581.2; 635.925

MAGNOLIYA (MAGNOLIA) TURKUMIGA MANSUB MANZARALI DARAXT VA BUTALARNING PATOGEN ZAMBURUG'LARI TUR TARKIBI

Musayev Akmaljon Anvar o'g'li, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot
institute, Andijon mintaqaviy filiali

musayev.akmal@mail.ru

Annotation: *This article presents mycological analysis of herbarium samples taken from diseased azoes of ornamental trees and shrubs belonging to the magnolia family, and provides information on the species composition of pathogenic fungi found in them.*

Key words: *mycological analysis, herbarium, magnolia grandiflora, magnolia nightmare, magnolia soulangeana, cladosporiosis, septoria, alternaria.*

Kirish. Shahar sharoitida manzarali o'simliklar ekologik muhitni saqlashda eng samarali vositalaridan biridir. Ularning asosiy vazifasi odamlarga estetik zavq berish bilan birgalikda atrof muhitni musaffoligini saqlash va kislorod bilan ta'minlashdir [1].

Ba'zi o'simliklar patogenlarning rivojlanishini to'xtatadigan fitonsid xususiyatiga ham ega. Shunday daraxtlardan hisoblangan Magnolia L. (Magnoliaceae Juus.) turi gulli o'simliklar avlodining ilk ajdodi hisoblangan Yirik gulli magnoliya (Magnolia grandiflora) daraxti turlarini dunyo miqyosida juda ko'p ilmiy ishlarda tadqiq etilgan. Bu tur o'simliklari yuqori darajadagi manzaraviylik xususiyatga ega, shuning uchun istirohat bog'larida, markaziy yo'l chekkalarida va landshaftlar hosil qilish uchun nihoyatda qadrlı daraxt va butalar bo'lib hisoblanadi [2].

Magnoliya hammaga tanish dorivor o'simlik. Xozirgi zamon xalq tibbiyotida magnoliyaning efir moyi sochni quvvatlash maqsadida ishlatiladi. Uning barglari damlamasi ovqat hazmi buzilishlarida ichiladi. Meksika xalq tibbiyotida magnoliya urug'lari qattiq og'riqlarni davolashda, gullari va barglari yurak kasallilarini davolashda ishlatiladi. Ilmiy tibbiyotda magnoliya barglari va gullari 70% etil spirtidagi nastoykasi yurak yetishmovchiligini va gipertoniyani davolashda tavsiya qilinadi. Uning musbat inotrop va gipotonik xususiyatlari aniqlangan. Magnoliya juda ko'p onkologiya amaliyotida ishlatiladi [5].

Istirohat bog'lari va parklarda magnoliya turkumi vakillaridan *Magnolia grandiflora* L, *Magnolia kobus* DC, *Magnolia soulangeana* turlari eng keng tarqalgan bo'lib, respublikamiz hududlarini obodonlashtirishda qo'llanilib kelinmoqda. Hozirgi vaqtda magnoliya turkumi turlari noqulay tabiiy sharoit va turli zararli organizmlar jumladan patogen mikroorganizmlar ta'sirida ularning manzaraviylik xususiyati yomonlashishi yoki ularining butunlay nobud bo'lishi holatlari kuzatilmoqda.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Tadqiqotlarimiz davomida 2022-2024 yillarda magnoliya turkumiga mansub manzarali daraxt va butalarning asosiy kasalliklari o'rganildi. Olib borilgan izlanishlar davomida magnoliya turkumi turlarining kasallangan a'zolaridan gerbariy namunalari yig'ildi va laboratoriya sharoitida mikologik tahlil qilindi (1-jadval). Kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'lar tur tarkibini tahlil qilish ishlari mavjud aniqlagichlar bo'yicha amalga oshirildi. Kasalliklarni tahlil qilish, tarqalish va zararini o'rganishda Naumov, Dospexov, Dudka va bosh. tomonidan tavsiya etilgan usullardan foydalanildi [3,4,6].

1-jadval

Magnoliya turkumiga mansub manzarali daraxt va butalarda aniqlangan zamburug' turlari

No	Xo'jayin o'simlik turi	Zamburug' nomi	Gerbariy na'munasi olingan joy
1	<i>Magnolia grandiflora</i>	<i>Alternaria alternata</i> (Fr.) Keissl <i>Phoma viridarii</i> Sacc <i>Cladosporium magnoliae</i> Lindau	Andijon viloyati Paxtaobod tumani "Temirov Saydillo" nomli manzarali o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligi
		<i>Heterosporium magnoliae</i> Weedon <i>Stemphylium</i> spp.	"Andijon Yo'lko'kalam" unitar korxonasiga qarashli manzarali daraxtlar yetishtirish pitomnigi
		<i>Ascochyta rabiei</i> <i>Septoria magnoliae</i> Kuk.	Akademik F.N Rusanov nomidagi Toshkent botanika bog'i
2	<i>Magnolia kobus</i>	<i>Cladosporium magnoliae</i> Lindau <i>Phoma viridarii</i> Sacc <i>Erysiphe magnifica</i> U. Braun	Andijon viloyati Paxtaobod tumani "Temirov Saydillo" nomli manzarali o'simliklar yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligi

		<i>Gloeosporium magnoliae</i> Pass. <i>Septoria magnoliae</i> Kuk.	“Andijon Yo‘lko‘kalam” unitar korxonasiga qarashli manzarali daraxtlar yetishtirish pitomnigi
3	Magnolia soulangeana	<i>Cladosporium magnoliae</i> Lindau <i>Phoma viridarii</i> Sacc	Akademik F.N Rusanov nomidagi Toshkent botanika bog‘i
		<i>Phyllosticta magnoliae</i> Sacc	Andijon davlat o‘rmon xo‘jaligi Niyoz-Botir o‘rmon bo‘limi
		<i>Diplodia magnoliae</i> West.	“Andijon Yo‘lko‘kalam” unitar korxonasiga qarashli manzarali daraxtlar yetishtirish pitomnigi

Xulosa. Mikologik tahlillar davomida 11 ta zamburug‘ turi, alternarioz (6-25%), stemfillioz (20-30%), kladosporioz (6%), septoriya (10-50%), un–shudring (4-10%), fillostiktoz (15-60%), fomoz va boshqa kasalliklari aniqlandi.

Magnoliya turkumiga mansub manzarali daraxt va butalardan *Magnolia grandiflora*da kasalliklarning eng keng tarqalganligi qayd etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muhamedjanov A, Berdiyev E. “Manzarali daraxt-buta o‘simliklar” Toshkent-2018- B. 4.
2. Raabe R.D. Diseases and Pests of Magnolia// J.Calif. Hort. Soc.-1962.- P. 23.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.—М.: Колос, 1979.—350 с.
4. Дудка И.А., Вассер Н.К., Элланская И.А. и др. Методы экспериментальной микологии: Справочник // Под. ред. В.И. Билай.—Киев: Наукова Думка, 1982.- С. 549.
5. Кароматов И.Д., Ражабова Г.Х., Файзиёв Н. Магнолия крупноцветная // Ж: Биология и интегративная медицина, 2017.- № 8, С. 91-113.
6. Наумов Н.А. Методы микологических и фитопатологических исследований.—Л: Сельхозгиз, 1937.- С. 272-276.